



ABDULHAMID CHO'L PON HIKOYALARI TAHLILI
("NOVVOY QIZ" HIKOYASI MISOLIDA)

Abdullayeva Gulnoza

Filologiya fanlari doktori, katta o'qituvchi

Muhammdjonova Nozimaxon

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili Cho'lponning "Novvoy qiz" hikoyasi badiiy-estetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda tasvirlangan ijtimoiy muhit, insoniy tuyg'ular, ayniqsa, ayol obrazining ochilishi, muallifning realizmga xos yondashuvi asosida yoritiladi. Hikoyaning g'oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi hamda badiiy vositalari tahlil etilib, uning o'zbek adabiyotidagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, hikoya, novvoy qiz, realizm, obraz, ijtimoiy muhit, ayol obrazi, badiiy tahlil

Annotation: This article analyzes the story "The Baker's Girl" by Chulpon, a prominent representative of Uzbek literature, from an artistic and aesthetic perspective. The social environment depicted in the work, human emotions, especially the revelation of the image of a woman, are highlighted based on the author's approach to realism. The ideological content, system of images, and artistic means of the story are analyzed, and its place in Uzbek literature is shown.

Keywords: Chulpon, story, baker's girl, realism, image, social environment, female image, artistic analysis



Cho'lpon o'zbek adabiyotida inson ruhiyatini nozik tasvirlash, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni badiiy ifodalash borasida katta hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. Uning hikoyalarida oddiy insonlar hayoti, ularning ichki kechinmalari va orzu-intilishlari chuqur ifoda etiladi. "Novvoy qiz" hikoyasi ham ana shunday asarlardan bo'lib, unda jamiyatning muayyan davrdagi ijtimoiy muammolari va insoniy qadriyatlar masalasi yoritilgan.

"Novvoy qiz" hikoyasida markaziy obraz - oddiy, mehnatkash qiz timsolidir. U jamiyatning pastki qatlamiga mansub bo'lsa-da, uning qalbi pok, orzu-umidlarga boy qilib tasvirlanadi. Muallif ushbu obraz orqali ayollarning jamiyatdagi o'rni, ularning ichki dunyosi va hayotdagi qiyinchiliklarini ochib beradi. Hikoyada qizning kundalik hayoti, uning mehnati va atrof-muhit bilan munosabatlari realistik ruhda tasvirlangan. Cho'lpon bu orqali o'quvchini oddiy inson hayoti haqida chuqur o'ylashga undaydi. Ayniqsa, qizning ruhiy kechinmalari, uning baxt va erkinlik haqidagi orzulari asarning g'oyaviy markazini tashkil etadi.

Asarda ijtimoiy tengsizlik muammosi ham muhim o'rin tutadi. Novvoy qiz obrazi orqali muallif jamiyatdagi adolatsizlik, kambag'allik va imkoniyatlar cheklanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, insonning ichki go'zalligi tashqi sharoitlardan ustun ekanligini ta'kidlaydi.

Cho'lpon badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanadi. Tasvirlar sodda, ammo ta'sirchan bo'lib, o'quvchining qalbiga tez yetib boradi. Dialoglar va tasvirlar orqali obrazlar yanada jonli va ishonarli chiqadi. Hikoyaning tili ravon, xalqona va samimiydir. Masalan, asarda qizning hayotga bo'lgan umidi va ichki izzatoblari tasviri orqali muallif inson ruhiyatining murakkabligini ochib beradi. Bu esa hikoyaning badiiy qiymatini yanada oshiradi.

Cho'lpon asarni bejizga bunday nomlamagan. Xalqimiz nonni aziz bilishadi. Cho'lpon ham o'sha davrdagi ayollarni nonday aziz bilib, qadrlanishi



kerakligini bir muncha tushuntirishga harakat qilgan. Bu asar 3 qismdan iborat va mazmuni haqida qisqacha soʻzlab beraman.

Birinchi qism fojea bilan boshlanadi. “Qilgʻilik qilinib, bechora qizning qizligi olinib, boʻlar ish boʻlib bitgandan keyin, ikkalasi jimjit boʻlib ikki tomonga choʻzilishdilar”. Oʻzidan iymonli soʻfini yasab olgan Oʻlmasboy bilan bir begʻubor, sodda, ishonuvchan novvoy qizning suhbatini aks etadi. Oʻlmasboyning chirkin soʻzlari, hech narsa boʻlmaganday yurishi va qizning har bir gapiga xoholab javob berishi kitobxonda qanchalik nafrat uygʻotsa, nima qilishni bilmay qolgan, aybsiz aybdor boʻlgan novvoy qiz shunchalik qalbingizni larzaga soladi. Mustabid tuzumdagi nomusi toptalgan, aybsiz qoralangan xotin - qizlarni bitta obraz orqali ochib bergan. Aslida I qismda nima sababdan qizning begunohligiga tushunmaysiz, lekin asar davomidagi qizgʻin voqealar orqali tushunib olasiz.

Ikkinchi qismda Baxtsizlik ustiga baxtsizlik. Zoʻrgʻa uyiga yetib kelgan novvoy qiz onasining oʻlimi ustidan chiqadi. Mana shu yerda Choʻlpon oʻzbek ayollarining farzandi uchun borini fido qilishga ham tayyorligini bosh qahramon oʻylari orqali ochib bergan. “Oʻlim yoqasidagi onaning oʻz nasibasini farzandiga berishi” kitobxonni yanada taʼsirlantiradi. Asarda “Qizning oʻylari oysiz tunda borgan sari qoraydi” sahifa degan jumla orqali qizning kelayotgan qorongʻi hayotining tasviri. Bu kunlar quyidagicha bayon qilinadi:

Keng yurt

Koʻp xalq...

Bu asarda qizning onasining oʻlganini hech kim bilmagan boʻlishi mumkin, lekin beayb sodda qizaloqning bu sharmandalik holati hammaga ayon boʻlgan edi. Mustamlaka aholi qizga yordam qoʻlini choʻzish oʻrniga, qizning bu hayotdan nafratlanishiga sabab boʻldi. Bu holatni asardagi bechora qizda eski -



tuski, yirtiq kiyimlar, ezilgan yurak va charchabsizlig‘in qiyofasida qolgan deb tasvirlanganidan tushunish mumkin.

So‘nggi qismida sud jarayoni aks etadi. Sudda bir paytlar nomussiz sanalgan novvoy qiz xotin – qizlar raisi sifatida gavdalanadi. Ushbu vaqtda aybdor O‘lmasboy oqlanib, suvdan quruq chiqib ketmoqchi bo‘lib turganda, avvallari yomonlik, xiyonat, aldovlardan ozor chekkan, iymonsizlikka qarshi kurasholmagan qiz yuksak bir qatiyat bilan o‘zining aybsizligini isbotlaydi. O‘lmasboy qizga barcha noningni o‘zim sotib olaman, mening hujramga olib - bor deb aldab chaqirib nomusini toptagani fosh bo‘ldi va yovuzlik ustidan g‘olib chiqdi.

Cho‘lponning serqirra ijodi, mazmundor hikoyalari kitobxon qalbidan chuqur o‘rin egallagan. Shu egallangan “Novvoy qiz” asari ijtimoiy hayotni yorqin aks ettirgani, tipiklashtirish qonuniyatining o‘ziga xosligi bilan diqqatga sazovor. Bu asarni o‘qigan kitobxon qahramon bilan barobar iztirob chekadi, uning taqdiriga qiziqadi va o‘z-o‘zicha taqdirning turli ko‘chalariga kirib chiqadi. Asar so‘ngida esa yaxshi xotimadan taskin topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdulhamid Cho‘lpon. Novvoy qiz. Ziyoz.uz.com
2. T. Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. O‘zbekiston 2002
3. Cho‘lpon. Hikoyalar to‘plami. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyoti
4. Abdulhamid Cho‘lpon. Yurt qayg‘usi haqida bebaho asarlar. Toshkent 2022-yil.